



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

TALABALARDA FAVQULODDA VAZIYATLARDA TO‘G‘RI HARAKATLANISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Yuldashev Feruz Qaxramonovich

Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
tel: +99891 284-01-87

Annotatsiya

Ushbu maqolada respublikamizda, jumladan oliv ta’lim muassasalarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar va ularning salbiy oqibatlari, yuzaga kelgan taqdirda talabalarda to‘g‘ri harakatlanish ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik yondashuvlari va usullari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar. Favqulodda vaziyat (FV), to‘g‘ri harakatlanish, bilim, amaliy ko‘nikma, trening.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ НАВЫКОВ ПРАВИЛЬНЫХ ДЕЙСТВИЙ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ

Юлдашев Феруз Каҳраманович

Независимый исследователь Наманганскоого государственного
педагогического института

Аннотация

В данной статье рассматриваются возможные чрезвычайные ситуации, которые могут возникнуть в нашей республике, в том числе в учреждениях высшего образования, их негативные последствия, а также методические подходы и методы формирования у студентов навыков правильных действий в случае их возникновения.

Ключевые слова: Чрезвычайная ситуация (ЧС), правильные действия, знания, практические навыки, тренировка.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING STUDENTS' SKILLS FOR CORRECT ACTIONS IN EMERGENCY SITUATIONS

Yuldashev Feruz Khahramonovich

Independent researcher of Namangan State Pedagogical Institute

Abstract

This article discusses the possible emergency situations that may arise in our country, including in higher education institutions, their negative consequences, as well as the methodological approaches and methods for developing students' skills for correct actions in case of such situations.

Keywords. Emergency situation (ES), correct actions, knowledge, practical skills, training.

Mavzuning dolzarbliji. Insoniyatning ekologiya va atrof-muhitga ta'siri natijasida ko'plab hududlarda iqlim o'zgarishi yuzaga kelib, turli ko'rinishdagi favqulodda vaziyatlar soni ortib bormoqda. Natijada odamlarning hayoti va sog'ligiga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, shuningdek atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazmoqda. Bunday holat yoshlar uchun xavfsizlik madaniyati va favqulodda vaziyatlarda harakatlanish ko'nikmalarini shakllantirish zaruratini kuchaytiradi. Talabalarning bunday vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishi va harakat qila olishi ularning xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega [1].

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati. Favqulodda vaziyatlar inson hayoti va xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi. Favqulodda vaziyatlar paytida to'g'ri va tezkor harakat qilish talabalar uchun muhim ko'nikma hisoblanadi, chunki bu ularning hayoti va atrofdagilar xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri harakatlanish ko'nikmalari talabalarga favqulodda vaziyatlar paytida o'zini boshqarish, atrofdagi holatlarni to'g'ri baholash va xavfli vaziyatlardan chiqib ketish imkonini beradi [2].

Tadqiqot ishining maqsadi talabalarning o'zini va boshqalarni himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish lozim:

- 1) bilim berish: favqulodda vaziyat turlari, ular paytida qanday xavfsizlik choralarini ko‘rish kerakligi haqida talabalarni xabardor qilish.
- 2) amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish: favqulodda vaziyat holatlarida xavfsiz evakuatsiya, tibbiy yordam ko‘rsatish va boshqa zaruriy ko‘nikmalarini o‘rgatish.
- 3) psixologik tayyorlash: favqulodda vaziyatda stress va qo‘rquvni yengish, vaziyatni xotirjam boshqarishni o‘rgatish.

Favqulodda vaziyatlarda harakatlanish ko‘nikmalarini shakllantirishning metodlari [3, 4, 5]

a) nazariy ta’lim. Nazariy ta’lim orqali talabalar FV haqida umumiy bilimlarga ega bo‘ladilar. Bu bosqichda ularga FV turlari, ular paytida xavfsizlik choralarini o‘rganish, qoidalar va xavfsizlik rejalar bo‘yicha ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, nazariy mashg‘ulotlar orqali talabalar FV oldindan sezish va ularga tayyor bo‘lishni o‘rganadilar.

b) amaliy mashg‘ulotlar va treninglar. Amaliy mashg‘ulotlar talabalarga FV holatlarida to‘g‘ri harakatlanish ko‘nikmalarini amalda o‘rgatadi. Bu mashg‘ulotlarda talabalar evakuatsiya jarayonlari, yong‘in o‘chirish, favqulodda yordam ko‘rsatish kabi asosiy amaliy qadamlarni bajarishni o‘rganadilar. Shuningdek, simulyatsiya orqali FV holatlarini jonli ravishda ko‘rsatish orqali talabalarni real holatga yaqin sharoitda tayyorlash imkonini beradi.

c) simulyatsiya va rol o‘yinlari. Simulyatsiya va rol o‘yinlari FV holatlarida talabalar uchun imitatsiya asosida tayyorgarlik ko‘rishning samarali usullaridan biridir. Simulyatsiya mashg‘ulotlari talabalarni real hayotdagi voqealarni qayta tiklash orqali FV paytida to‘g‘ri qaror qabul qilish va tezkor harakatlanishni o‘rgatadi. Bu usullar orqali talabalar FV paytida jamoaviy hamkorlik qilish, muammolarni hal qilish va bir-biriga yordam berish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

d) dastlabki tibbiy yordam ko‘nikmalarini o‘rgatish. FV holatlarida tezkor tibbiy yordam ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lish ham muhim ko‘nikma hisoblanadi. Talabalar dastlabki tibbiy yordam kurslari orqali jarohatlanganlarga yordam ko‘rsatish, jarohatlarni qayta tiklash va hayotiy xavfsiz choralarini amalga oshirishni o‘rganadilar.



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th January, 2025

Talabalarda favqulodda vaziyatlar chog‘ida to‘g‘ri harakatlanish ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari [6]

FVda to‘g‘ri harakatlanish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi metodik asoslardan foydalanish lozim:

- a) pedagogik yondashuv. Pedagogik yondashuv talabalarda FV paytida to‘g‘ri harakatlanish qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda ularga xavfsizlik qoidalari, xavf-xatarlarni oldindan baholash va qanday chora-tadbirlar ko‘rish kerakligi o‘rgatiladi.
- b) psixologik tayyorlash. FV paytida talabalarini stressga chidamli qilish, o‘z-o‘zini boshqarish va qo‘rquvni yengishga o‘rgatish zarur. Psixologik tayyorgarlik talabalarning FV holatlarida xotirjamlik bilan to‘g‘ri qaror qabul qilish va o‘z harakatlarini nazorat qilish imkonini beradi. Bu maqsadda psixologik treninglar, stressni yengish usullari va motivatsion mashg‘ulotlardan foydalaniladi.
- c) nazorat va baholash. FV holatlarida to‘g‘ri harakatlanish ko‘nikmalarini shakllantirishda nazorat va baholash tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Bu orqali talabalarning o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan mashg‘ulotlar samaradorligini tahlil qilish mumkin. Talabalar bilimini baholash uchun turli sinovlar, amaliy imtihonlar va treninglardan foydalanish mumkin.

Xulosa

Ushbu tadqiqot ishini olib borish davomida mavzuga oid me’yoriy hujjatlar, adabiyotlar, soha olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishib chiqib, quyidagi xulosaga keldim: talabalarda favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanish ko‘nikmalarini shakllantirish - ular uchun xavfsiz va xavf-xatarlarga tayyor hayotni ta’minlashning muhim omillaridan biridir. Bu maqsadda nazariy ta’lim, amaliy mashg‘ulotlar, simulyatsiya usullari va tibbiy yordam ko‘nikmalarini shakllantirishning muhimligi ta’kidlanadi. Metodik yondashuvlar orqali talabalar favqulodda vaziyatlar chog‘ida to‘g‘ri qaror qabul qilish, tezkor harakatlanish va o‘zlarini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa ularning xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Tojiyev M, Nigmatov I, Ilxomov M. “Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi”. O‘quv qo‘llanma. T., 2002.
2. X.E.Rustaraova, M.D.Maxsumov, U.A.Tuymachev. “Fuqaro muhofazasi va fuqaro muhofasi tibbiyot xizmati” T.: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018 -272 bet.
3. E.E. Qobilov, M.E.Mardonova. “Fuqaro muhofazasi” Darslik – Samarqand: SamDU nashri, 2021.–380 b;
4. S. Gazinazarova, O. R. Yuldashev “Avariya-qutqaruv ishlari” o‘quv qo‘llanma Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2014 y, 162 bet
5. Юлдашев О, Хасанова О, Жалолов У, Турагалов Т. “Аварийно-спасательные работы”. Учебное пособие.-Т., 2008.
6. S.S. Sulaymanov, R.S. Razikov, O.T. Aliyev, Z.SH. Tursunov “Hayot faoliyati xavfsizligi” (temir yo’l transportida) o‘quv qo‘llanma TDTrU - “Transport” nashriyoti, T.: 2022, 291 bet.
7. Безопасность жизнедеятельности. Производственная безопасность и охрана труда / П. П. Кукин, В. Л. Лапин, Н. Л. Пономарев и др. Учеб. пособие для студентов средних спец. учеб. заведений. М.: Высш. шк., 431 с.: ил. 2011
8. Tojiyev M., Nigmatov I. “Hayot faoliyati xavfsizligi” O‘quv qo‘llanma –T.: Tafakkur - Bo‘stoni, 2012 .- 271 b.